

# Tong

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N: 52 (67321)  
2020-yil 28-dekabr

# Yulduzi

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN-2010-6092

## YANGI O'ZBEKISTONDA ERKIN VA FAROVON YASHAYLIK!



**BIL ERTANING PORLOQ YULDUZI!**

Men har Yangi yil oldi o'zimning shaxsiy yillik ish rejami- ni ishlab chiqaman. 2020-yilda ushbu uslubim orqali ko'plab xalqaro loyihalarning eng faol ishtirokchisiga aylandim. Axborot texnologiyalariga qiziqishim katta. Shu sababdan, Coursera va Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tashkil etilgan loyihada London universitetining «Understanding Research methods», Jonhs Hopkins universitetining «HTML and Javascript for web developers» yo'nalishlarida on- layn kurslarda ta'lim oldim va xalqaro darajadagi sertifikatlarni qo'lga kirit- dim. Bu borada men Yoshlar ishlari agentligidan minnatdorman.

Yaqinda Davlatimiz rahbari bilan uchrashish baxtiga sazovor bo'ldim. Uchrashuv menda katta taassurot qoldirdi. Yanada ko'proq izlanishim, bilim olishim kerakligini his qildim. Negaki, biz yoshlar Vatanimizning ertangi kunimiz! Ayni damda, 2021-yil uchun shaxsiy rivojlanish jadvali ustidan ish olib borayapman.

Izlanuvchan yoshlarga imkoniyat eshik- lari hamisha ochiq!

**Charos FOZILOVA,**  
Xorazm viloyati, Urganch shahridagi  
5-umumta'lim maktabining 11-sinf o'quvchisi

## MUHARRIRLAR MAKTABGA KELDI

4-bet



– Biz 2021-yilda ham bolalar nashrlari bilan hamkorlikni davom ettiramiz, – deydi Toshkent tumanidagi 9-umumta'lim maktabi direktori Shohista NIYOZOVA.



28-dekabr 2020-yil

## ASQAD MUXTOR TAVALLUDINING 100 YILLIGI

Chinakam badiiy asar hamma vaqt javobsiz savoldir, bordi-yu adib unda biror muammo ko'targan bo'lsa ham, bu amalda hal qilib bo'lmaydigan muammodir. Agar muallif amalda hal qilinadigan vazifa qo'ysa, asosan, ocherk yoki maqola bo'ladi. Yozuvchi esa tashviqotchi emas, shoir bo'lishi kerak.

Xurshid DAVRON

## QODIRIYNI KO'RGANMAN-U...



Asqad MUXTOR

Men Abdulla Qodiriy ko'rganman-u, ko'rdim, deb aytolmayman. Bunga Hakim Nazir aybdor.

Marg'ilon bozorining beshik rastasi shinam choyxona bo'lar edi. Domlam Obidjon aka bilan bitta non, bir hovuch mayiz olib, endi choy chaqirgan edik, domla:

— Ana, u yoqqa qara... — deb qoldilar shivirlab, — Abdulla

Qodiriy o'tiribdi.

Men qaradim, ikkita soddagina, do'ppili kishi shaxmat surishyapti. Shu o'yinga juda berilgan paytim, gazetada chiqqan chigil masalalarni yechib, grossmeysterlarning o'yinlarini tahlil qildim. Haligilarning taxtasiga qarasam, juda qiziq vaziyat. Alyoxin bilan Kapablankaning mashhur partiyasi-ku bu!

— Narigisi yutadi, — dedim.

— O'shanisi Qodiriy-da! — dedi Obidjon aka.

Mening fikri-zikrim taxtadagi vaziyatda edi, shu vaziyatda buyuk Kapablanka taxtdan yiqilgan.

Qodiriy ko'rdim-u, ko'rdim, deb aytolmayman.

Buning Hakim Nazirga nima dahli bor, dersiz? Hakim aka hozirgi «Tong yulduzi» («Lenin uchquni»)da ishlardilar. Shu gazetada chiqqan xabarlarim uchun qalam haqi o'miga (pul bolani buzadi, degan bo'lsalar kerak) u kishi menga shaxmat yuborganlar. Donalari jajji, yaltiroq, taxtasi sirlangan. Bunaqasini ko'rmagan edim, qo'ltig'imda olib yurib, shu o'yinga ruju qo'ydim. Bolalik ekan-da...

Bolalik ham qoldi. Shaxmat ham qoldi. Qodiriy esa umrim, kasbim, taqdirim...

Bunday bo'lishini kim bilib o'tiribdi, deysiz!

«Uyqu qochganda...»  
kitobidan



Xudoyberdi  
TO'XTABOYEV,  
O'zbekiston  
xalq yozuvchisi

## MENING MAHORAT MAKTABIM

...Gazetadagi meni to'liqlantirgan maqolalar kechalari ko'zinga uyqu keltirmay, o'ylashga, nimadir yozishga undab, tinchlik bermasdi. Shunday tunlarning birida yozilgan «Felyetondan keyin» nomli maqolam bo'lgan. Endi bu maqola qanday qilib birinchi asar sifatida qoldi? Bu haqida aytib beraman.

Toshkentga bir gal kelganimda, tasodifan «Tong yulduzi» (avvalgi «Lenin uchquni»)da ishlaydigan Abdudohid Mullamuhammedov degan o'rtog'imni uchratib qoldim. Gurung davomida bexosdan badiiy ijod haqida havas bilan gapirishimdan (aslida, Qo'qondagi bilim yurtida ham yozishimni sezib-sezdirmay yurardim) bilib qolib, holi jonimga qo'ymay, «Felyetondan keyin» qo'lyozmamni olib qoldi.

Qishloqqa qaytdim. Oradan ko'p o'tmadi. Hozir aniq esimda yo'q, chamasini bir oylardan keyin qo'shni maktabda ishlaydigan bir hamkasbimiz gazetani ko'tarib suyunchiga kelib qoldi. Bir-ikki kun o'tib esa

Mening  
ijodkorlik ruhida  
tarbiyalanishimda  
«Tong yulduzi» mahorat  
maktabini o'tagan...

pochtadan uch so'm qalam haqi keldi. Shundan keyin mening u-bu narsa yozib yurishim ma'lum bo'ldi.

Har bir shaxsni jamiyat shakllantiradi. Meni ijodkorlik ruhida tarbiyalanishimda «Tong yulduzi» mahorat maktabini o'tagan deyishim mumkin. Chunki har qanday qalamkashni matbuot auditoriyasi tag'in yozishga harakat qildiradi. Ruhlantiradi, bildirilgan fikrlar orasidagi maqtoqlar qanot bag'ishlasa, tanqid izlanishga, kamchiliklarni to'ldirishga undaydi. Yomonmi-yaxshimi, har qanday fikr va uning egasi befarq qoldirmaydi.

Agar o'shanda «Tong yulduzi»da ijodiy ishim chop etilmaganda, kim bo'lishim, kasbimga yana qanday kirib kelishim mumkinligini tasavvur ham qila olmayman.



## XUDOYBERDI BOBO MEHMONIMIZ

**Kutubxona bu ziyo maskani. Ana shu maskanda ishlab, o'quvchilarni kitob bilan oshno qilish sharafti, albatta. 6 mingdan ziyod badiiy kitob fondiga ega nurxonamiz hamisha kitobxonlar bilan gavjum.**

O'qilgan kitoblar yuzasidan «Yosh kitobxon» to'garagida savol-javob kechalari, suhbatlar o'tkazib boramiz. Madina Ne'matova, Shahodat Ibrohimova, Rayhona G'aniyeva, Odina Fazliddinova, Gulsanam Xolmatova, Hilola Mamadaliyeva kabi faol kitobxonlarimiz bilimdon-u zukkoliklari bilan tengdoshlariga

ibrat bo'lishyapti. O'zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyevning maktabimizga tashrifi o'quvchilarning uchun unutilmas voqea bo'ldi. O'quvchilar sevimli yozuvchilari qalamiga mansub asarlar asosida sahna ko'rinishlari tayyorlashdi, o'zlari yoqtirgan she'rlardan yod olishdi, esdalik uchun suratga tushishdi,

kitoblariga muallifdan dastxat yozdirishdi. Zero, adibning bolalarga bag'ishlab yozilgan har bir asari o'quvchilar tafakkurini boyitishga xizmat qiladi.

Farida ASTANAQULOVA,  
Farg'ona viloyati, Beshariq  
tumanidagi 42-umumta'lim  
maktabi kutubxonachisi



# DIPLOMAT BO'LAMAN

**Bolaligidan buyon, katta bo'lsang kim bo'lasan, deb so'rashsa, diplomat bo'laman, derdim. Bu yil o'sha beg'ubor orzumga erishdim.**

Oilamizdagi ma'naviy muhit, qolaversa, ota-onamning bergan to'g'ri tarbiyasi va yo'nalishi tufayli 17 yoshimda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabasi bo'ldim. Fanlarni a'lo baholarga o'zlashtirganim, jamoat ishlaridagi faolligim uchun maktabni oltin medalga tamomladim. Endi universitetda ham o'z xulqim bilan barchaga o'rnak bo'lishga, yaxshi natijalarga erishishga harakat qilyapman. Insonda maqsad, harakat bo'lsa-gina, u yuqori natijalarga erisha oladi. Maqsadsiz, harakatsiz kishining yashashidan mantiq, hayotida ma'no-mazmun bo'lmaydi.



Universitetdagi ilk taassurotlarimga kelsak, mendan ko'pchilik, talaba bo'lish, o'qish qiyin ekanmi, deb so'rayapti. Men ularga: «Yo'q, o'qish haqiqiy o'qiydiganlar uchun qiyin emas. Talabalik esa inson hayotining eng zavqli, unutilmas davridir, deb javob beriyapman. Yurtimizdagi eng yaxshi, nufuzli universitetlardan birida tahsil olish talabaga ulkan zavq beradi. Shuning barobarida zimmasiga katta mas'uliyat ham yuklaydi, albatta.

**Dilmurod DILMURODOV,**  
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti-ning 1-bosqich talabasi

## KITOBXONLAR SONI KO'PAYDI

**Farzandiga kitob olib berish uchun tashrif buyurgan ota-onalar, maktabimizda uzoq yillar faoliyat yuritib, hozirda nafaqada bo'lgan ustozlarimiz tashrifi tadbirga yanada fayz kiritdi.**

Kitob yarmarkasiga olib kelingan 3000 nomdagi kitoblar orasida ayniqsa, o'zbek adabiyoti durdona asarlari, jahon adabiyoti namunalari, diniy kitoblar, fanlarga oid qo'llanma va to'plamlar, kichik yoshdagi bolajonlar uchun er-tak kitoblar barchaga manzur bo'ldi. Bu kitobxonlikni ko'rgan o'quvchilarning quvonchi va hayajonini so'z bilan ifodalab bo'lmaydi.

Maktabimiz o'qituvchi va o'quvchilari tomonidan sotib olingan kitoblardan tashqari maktabimiz kutubxonasi homiylar tomonidan taqdim etilgan kitoblar bilan ham boyitildi.

Yurtimizda kitobxonlik madaniyatini oshirish, o'quvchi-yoshlarning bilim oli-

shi va tafakkurini boyitish maqsadida amalga oshirilayotgan xayrli ishlar bardavom bo'laversin.

**Nigora NASRULLOYEVA,**  
**Nafisa MAJIDOVA,** Buxoro viloyati,  
G'ijduvon tumanidagi 51-umumta'lim maktabi o'qituvchilari



28-dekabr 2020-yil

3



**Dilfuza MUSTAFOYEVA,**  
Buxoro viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i

## IMKONIYATLAR DAVRI

**Yangi yil – katta-yu kichik uchun bir xilda sevimli bayram. Ayniqsa, bolalar bu bayramni o'zgacha bir intiqlik, hayajon va orziqish bilan kutishadi. Rang-barang o'yinchoqlar bilan bezatilgan archa, oppoq qor, sovg'alarga to'la qopini ortmoqlab olgan Qorbobo – chinakam mo'jiza!**

Ba'zilar mo'jizalarga ishonishmaydi. Ammo sinchiklab kuzatsak, hayotimizning o'zi mo'jizalarga to'la. Aslida, bu mo'jizalarni o'zimiz yaratamiz. Agar ikki-uch asr muqaddam yashagan ajdodlarimiz bizning zamonga tushib qolishganida, biz uchun hayotimizning oddiy ehtiyojiga aylanib qolgan samolyot, tezyurur poyezd, kompyuter, mobil telefon kabi texnikalarni ko'rib, hayratga tushgan bo'lardi. Holbuki, bularning bari mo'jiza emas, inson aql-u tafakkuri mahsulidir.

Bolalik, o'smirlik davri – inson hayotining eng muhim va eng noyob pallasi. Men bu davrni imkoniyatlar davri, deya atagan bo'lardim. Ayni shu davrda inson organizmi mislsiz qudratga ega bo'ladi. Kelajagimizning qanday bo'lishi bizning ana shu qudratdan qay tarzda foydalana olishimizga bog'liq. Mo'jizalar – shu davrda olgan bilimlarimiz tufayli yaratiladi.

Barchangizni Yangi yil bayrami bilan chin qal-bimdan tabriklar ekanman, tilagim – yurtimizdagi har bir bola, har bir o'smir mo'jiza yaratishga qodir zakovatli inson bo'lsin! Zero, kuchli bilim, yuksak ma'naviyatga ega farzandlaringina buyuk kelajakni yaratadi.



28-dekabr 2020-yil

# MUHARRIRLAR MAKTABGA KELDI

Dunyodagi eng dono odamlar bilan har kuni muloqot qilishdan ko'ra nima qadrliroq bo'lishi mumkin?  
L. N. TOLSTOY



Muloqotning eng samarali usullaridan biri gazeta bilan hamkorlikdir. Buni to'g'ri anglagan o'quvchilarimiz bolalar nashrlariga alohida mehr bilan qaraydilar.



Yaqinda maktabimizda «Tong yulduzi», «Gulxan», «G'uncha» gazeta tozlariga gazeta Bosh muharriri faxriy yorliq va esdalik sovg'alari topshirdi.

va jurnallari Bosh muharrirlari ishtirokida ijodiy muloqot bo'lib o'tdi. Ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari Mahfuza Muhiddinova, Dilfuza Sobirova tomonidan tayyorlangan tadbir o'quvchilardan Abubakir Hotamov, Mubina Muhammedova, Diyora Uyg'unova, Sevvara Mahmudova va boshqalar ushbu gazeta va jurnallarda chop etilib, ko'ngillaridan joy olgan she'rlardan yod aytishdi. Sahna ko'rinishlari namoyish etib, jozibali raqslar ijro etdilar. Eng quvonchlisi, «Boyligni bolalikdan asrang!» tanlovi g'oliblari Fayzulloh Ravshanxonov va Charos Ravshanxonova hamda ularning us-



– Bugungi mehmonlar tashrifidan juda quvondik, – deydi maktabimiz rahbari Shohista Niyozova. – Mehmonlarning mutolaaga bag'ishlangan zavqli hikoyalari o'quvchilarimizga ibrat maktabi bo'ldi. Biz yangi yilda ham bolalar nashrlari bilan hamkorlikni davom ettiramiz.

Tadbir so'ngida Zahro Hasanovaning «Ko'zmunchog'im» kitobidan ham she'rlar yodlandi. Feruza Adilovanning «Uyimizning devori» kitobidan sahna ko'rinishi ijro etildi.



«Boyligni bolalikdan asrang!» tanlovi g'oliblari



## MO'JIZAGA INTILGAN QALBLAR

**Kitob – inson tafakkuri yaratgan mo'jiza.  
Insonning eng yaqin do'sti, maslahatchisi – kitob.**

Hali o'qishni bilmaydigan go'dak ham kitobga intiladi. Uni varaqlaydi, rasmlarini tomosha qiladi. Ota-onasi o'qib beradigan eraklarni diqqat bilan tinglaydi. Shu tariqa bolada kitobga mehr uyg'onadi. O'qishni o'rgangach, kitob uning do'stiga aylanadi. Kitoblar juda ko'p, mavzular xilma-xil. Bola ustozlari yordamida kitob tanlashni o'rganadi. Demak, bolaning kitobxon bo'lib shakllanishida ota-ona va ustozlarning o'ri beqiyos.

Maktabimizda kitobxonlikni keng targ'ib etish, yoshlarning kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, arzonlashtirilgan narxlarda kitob savdosi yarmarkalari muntazam tashkil etilmoqda. Barcha sinflarda «Eng kitobxon o'quvchi» ko'rik-tanlovi o'tkazilib, g'olib o'quvchilar tanlovning maktab bosqichiga yo'llanma oldilar. «Eng kitobxon o'quvchi» ko'rik-tanlovining maktab bosqichini 3–4-sinf o'quvchilari boshlab berdilar. Ishtirokchilar o'qigan kitoblari, mualliflar haqida ma'lumot berib, o'zlari yoqtirgan erakdan parcha namoyish etdilar. Ko'rik-tanlovda eng yosh kitobxonlarning ishtirok etishi dillarga zavq bag'ishladi. Tadbir so'ngida ko'rik-tanlov ishtirokchilari faxriy yorliq va kitoblar bilan taqdirlandilar.

**Nilufar ISLOMOVA,**  
poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi  
262-umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot  
fani o'qituvchisi



**Umida KARIMOVA,**  
Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi  
9-umumta'lim maktabining o'qituvchisi,  
Xalq ta'limi a'lochisi



## HANUZ YAXSHI KO'RIB O'QIYMIZ

«Tong yulduzi» degan nom bolalikni yodga soladi. Aslida, shoirlarning o'zi to'xtab qolgan bolalik. Ijodkorlikning o'zida yaxlit bolalikning bo'laklari bor. Bo'lak bo'lgandan keyin yaxlitlik bo'ladi, deyish mumkin. Bolalikning shunday oniy lahzalari borki, butun-butun umrlarga tatiydi.

...«Tong yulduzi» uyimizga borar edi. Uni opalar bilan talashib-tortishib o'qir edik. Unda beriladigan she'r va hikoyalarni yod olardik. Muazzam, yorug' kunlar hech qachon tark etmas ekan kishini, xuddi bolalikka o'xshab. Shuning uchun ham taqdir goho she'r bilan siylab tursa kerak.

Yangi yil arafasida juda hayajondaman. Dekabr oyining o'ziga xos fayzi, sirliligi, olislardan keladigan Qorbobosi-yu Qorqizi bular bizga bolaligimizdan esdalik bo'lib yodimizda qolgan.

Yangi yil ostonasida «Tong yulduzi»ning jajji mushtariylarini mana shunday sehrli bayram bilan tabriklar ekanman, qalbini hech qachon yorug'lik tark etmasligini, nurli kelajakka ishonishlarini va albatta, shu ishonchga putur yetmasligini istayman. Agar shu bolalikdagi sehr, bolalikdagi zavq bo'lmaganda, ushbu nashrni hanuz yaxshi ko'rib o'qimagan bo'lardik.



Shodmonqul SALOM,  
O'zbekiston Yozuvchilar  
uyushmasi a'zosi



## HOKIM VA YOSHLAR UCHRASHUVI

Kuni kecha Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumanida bo'lib o'tgan hokim va yoshlar uchrashuvi joriy o'quv yilida oliy o'quv yurtlariga kirish test sinovlaridan eng yuqori ball to'plagan o'quvchilarni munosib taqdirlashga bag'ishlandi.

2019 – 2020-o'quv yilida tuman tasarrufidagi umumta'lim maktablarining 1861 nafar bitiruvchilaridan 356 nafari oliy ta'lim talabasi bo'lish baxtiga musharraf bo'lishdi. Mazkur uchrashuvda tuman hokimi oliygohlarga eng yuqori ball bilan o'qishga kirgan 12 nafar o'quvchiga Notebook sovg'a qildi. Taqdirlanganlar orasida 5-umumta'lim maktabidan Muslima Mirahmedova, 7-umumta'lim maktabidan Shahnoza G'ulomova, 17-umumta'lim maktabi vakili Anatoliy Areslanov hamda Laylo Abduxaniyeva, Xurshida Sodiqova, Lazizxon Bahromov, Shahrizoda Tursunboyeva, Sharofatbonu Ro'zmatova, Jumadilla Akbarov, Ozoda O'rozboyeva, Olimjon Autov singari a'lochi yoshlarimiz bor.

– Bolaligidan jismoniy tarbiya o'qituvchisi bo'lishni orzu qilardim. Shukur-ki, ushbu yilda orzumga erishdim – O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti talabasi bo'ldim! – deydi M. Mirahmedova. – Bugungi mukofot meni yanada ruhlantirdi. Ota-onam, ustozlarim ishonchlarini oqlashga, kelajakda yetuk mutaxassis bo'lib, xotin-qizlar sportini rivojlantirishga o'z hissamni qo'shishga

va'da beraman!

– Tezkor va shiddat bilan o'zgarib borayotgan bugungi kun yoshlari har jabhada ilg'or. Harakatlar strategiyasi doirasida «Yoshlar – kelajak bunyodkori», «Obod qishloq», «Obod mahalla» kabi keng qamrovli dasturlar amalga oshirilayotgan ayni davrda mana shunday bilimli, tashabbuskor, har bir masalaga yangicha yondashadigan o'g'il-qizlarimiz faol ishtirok etayotgani, hech shubhasiz, barchamizni xursand qiladi, – deydi tuman hokimi O. Nurmatov. – Biz – barchamiz, qayerda bo'lmaylik, yagona O'zbekiston farzandlari ekanimizni anglab, shu buyuk tuyg'uni e'zozlab yashasak, albatta, kam bo'lmaymiz.

Aziz yoshlar, men sizlarning har biringizga el-yurtimiz faxrlanadigan, jonajon tumanimizning munosib farzandi, komil inson bo'lish baxti nasib etishini tilayman!

Ko'zlarida kelajakka ishonch, ona Vatanga muhabbat porlab turgan yoshlar nafaqat O'rta Chirchiq tumani, balki mamlakatimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shishiga ishonamiz!

Nurbek QIDIRALIYEV



28-dekabr 2020-yil

Lesson 52

Ingliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

## AMAZING CHRISTMAS FACTS FOR CHILDREN

### 1. CHRISTMAS CELEBRATES THE BIRTH OF JESUS CHRIST

Christmas is an annual Christian holiday that celebrates the birth of Jesus Christ. The 25th day of December was chosen to mark His birthday by the Roman Catholic Church years after His death. And this Christian holiday is celebrated by Christians all over the world.



### 2. CHRISTMAS TREES WERE FIRST USED BY ANCIENT EGYPTIANS AND ROMANS



The origin or the use of Christmas trees goes way back to ancient Egyptians and Romans. They used evergreen trees like fir or pine trees, wreaths, and garlands. And the use of modern Christmas trees started in Germany in the 16th century. Instead of the glitzy decorations that we see on them today, they were decorated with fruits and nuts. Wet bet you didn't know this interesting fact about the Christmas tree!

### 3. CHRISTMAS STOCKINGS ARE CUTE, WARM AND SPACIOUS!

The tradition of nailing Christmas stockings near a fireplace came about in order to help Santa have a place to stuff candies and goodies for bright and cheerful children of the world. It also serves as an endless supply of socks for Santa.




## TOP 2 INTERESTING FACTS ABOUT AMERICA

### 1. WORLD'S TALLEST BATTLE MONUMENT

The San Jacinto Monument is situated in Harris County, Texas. It has a 220-ton star on its apex. The monument is the symbol of the Battle of San Jacinto which was fought for the Texas Revolution.

This monument was constructed in the mid-19th century. It is the tallest monument made from stone in the world. There is an elevator for the visitors for viewing Houston from the top.

So, we saw many interesting facts today about America. It is a must watch place once in your life.



### 2. CHICAGO AND FERRIS WHEEL



Pier which has many other tourist attractions.

The Lake Michigan surrounds the Navy Pier area. Now, the wheel is again planned to be reconstructed with the new design and style. Now, The Navy pier has a theater and many restaurants.

Do you know that the Ferris wheel first constructed in Chicago? The wheel had a height of about 264 feet and it was opened in the year 1893 but it was demolished soon in the early 19th century. This wheel was located in Navy

To'lqin PARDAYEV



# QORBOBONI QUCHDI PARVOZIM!

28-dekabr 2020-yil

Ustozimiz kim ko'p she'rni yoddan bilsa, Qorboboning sovg'asini olishga musharraf bo'lishini oldindan aytgani bois, men bir necha kun tunlarni tongga ulab she'r yodlagandim. Qorboboning eng kattakon sovg'asi meniki bo'lishini dildan his qilib turardim. Ammo negadir men aytgandek bo'lmadi. Qorbobonimni quchgan bolalarning qovunchi ichiga sig'masdi.

– Ustoz, men aytay, iltimos, men she'r aytay... – o'quvchilarning g'ala-g'ovurli so'rovi tinmasdi. Men esa hammadan ko'p she'r yodlab kelgandim. Buni ustozimiz ham bilardi. Men u kishining:

**Bolalikda kelishini intiq kutgan Qorbobomizning qo'limga tutgan shirin kulchasi ta'mini hanuzgacha unutmaganman. Maktab hovlisida o'rnatilgan kattakon archa atrofida Qorboboni intiq kutardik.**

– Bolalar, to'xtanglar, eng ko'p she'rni yodlagan o'quvchimiz, mana bu yoqda turibdi... – degan so'zlarini intiq kutardim. Ammo ustozimiz negadir jim edi. Men esa o'quvchilarga she'rxonligimni ko'rsatmaslikdan iymanib turardim. Qorboboning qopidagi yaxshi sovg'alar borgan sayin kamayib borardi. Nihoyat, Qorbobo menga yuzlandi. Men endi she'r aytishni boshlagan edim, u she'rinni oxirigacha eshitib ham o'tirmay, bo'shab qolgan qopidan qo'limga bir dona shirin kulcha tutqazdi. Men dovdirab qoldim. So'z bo'g'zimda tiqilib qoldi. Negadir kulishimniyam, yig'lashimniyam bilmasdim...

Yillar o'tgan sayin aqlimni tanib, mening bu dunyoda olgan be-minnat eng kattakon sovg'am o'sha Qorboboning qo'limga tutqazgan shirin kulchasi ekanini angladim. Xotiramda hanuzgacha muhrlanib qolgani bolalikda yod olgan bebaho she'rilarim bo'ldi. O'shanda balki ustozimiz meni kibrlanib ketmasligimni sinash maqsadida indamay qo'yaqolgandir?! Yana kim biladi deysiz?!

Yuragimni o'ynatganlar ham, Tunlari dars qilmas edilar.

Hanuzgacha kutib turibman, Qorboboning kelishini mushqot. Tinimsiz she'r yodlab yuribman, Ostonamda o'chmagay chiroq.

Ustoz, uzr, sizni qiynadim, Hanuzgacha chiqmas ovozim. Qahratonda qorda o'ynadim, Qorboboni quchdi parvozim!

Maktab, menga maqto'v kerakmas, Yuragimda quvnaydi sog'inch. Qorboboni kutganim emas, Ustozimdan tilayman ilinj.

Tuni bilan o'chmagan chiroq, Meni kechir, sen yonib bo'lding. Bolaligim mehrga mushqot, Kulcha tilab yonimga kelding.

Qorboboni quvnatganlar ham, She'rni mencha bilmas edilar.



Sariosiyo tumanidagi D.N. Mendeleyev nomli 45-o'rta maktabning 6-«B» sinf o'quvchisi Axtamqul Karimov. 1975-yil.

## BIBIQJONGA ACHINDIM...

**Bahrom Akbarov xonamizga iymanibgina kirib kelganida, hayron qolganman. Negaki, mening qabulimga ko'proq ijodkor o'quvchilar kelishadi. Ular o'zlarining siyohi qurimagan xom-xatala she'rilarini o'tkazish ilinjida bor mahoratlarini ishga solishadi. Ammo kutilmaganda yoshi oltmishni qoralagan bu mo'min-qobil odam nima derkin, deya boshida hayron qoldim.**

**U kishi yonidan roppa-rosa o'ttiz betlik hikoyasini chiqarib, stolimga qo'ydi.**

– Sevimli gazetamga quruq qo'l bilan chiqmay, deb hikoya olib kelgandim...

Negadir peshonam tirishdi. Bir yo'la o'ttiz betlik hikoyamish...

– Hikoyangiz nima haqida edi, – deya so'rayman undan norizo ohangda.

– Xo'roz haqida yozganman. – Xo'roz haqidayam o'ttiz bet yozasizmi?

– Siz meni tushunmadingiz. Bu

jasoratli xo'roz edi... – u o'rindan qo'zg'aldi. – Mayli, gazetaga chiqmasa ham, bir o'qib ko'ringchi...

Qo'lyozmani qo'lga oldim. Ammo, negadir o'qigim kelmadi. Nomiya g'alati, nimamish – «Bibiqjonning jasorati». Hikoya besh-o'n kun stolim ustida sarg'ayib yotdi. Negadir uni o'qishga ishtiyolim yo'q edi. Nihoyat, kunlarning birida hikoyani o'qishga

jasorat topdim. Qo'limga olib o'qigan sari o'qigim kelardi. Bu yaqin orada bolalarga bag'ishlab yozilgan bunday ajoyib sarguzashtni o'qimagandim. Qiziq, oddiy bir xo'roz haqida shunday yonib yozish mumkin ekan-ku! Bibiqjonning sarguzashtlari bolalarni mehr-muhabbat olamiga yetaklaydi. Sarguzashtdagi ko'ngli osmondek beg'ubor bolalarga havasim keldi. Biz «Bibiqjonning

jasorati»ni peshma-pesh gazetamizda berib bordik. Bugun nihoyat, sarguzasht qissamiz yakun topdi. Negadir Bibiqjonga achindim...

Hurmatli Bahrom Akbarov! O'sha kuni sizning asaringizni xushlamay qabul qilganim uchun sizdan uzr so'rayman. Ijodingizga baraka bersin!

**AXTAMQULI,**

**«Tong yulduzi» gazetasining bo'lim muharriri**

(Davomi.)

**Boshi o'tgan sonlarda)**

– Bibiqjon! Bibiqjoningnam!!! Senga nima bo'ldi, ko'zlarini och, Bibiqjonim?!

Men Bibiqjonni ko'tarib olganicha yig'lardim...

Bibiqjonning ahvolini ko'rib, onam o'zlarini tutib turlamay yig'lardilar. Ra'no buvim, singillarim va hatto ikki yashar ukam Abror ham yig'lardi. Uncha-munchaga yig'lamaydigan dadam esa peshona bog'ichlari bilan ko'z yoshlarini artib-artib qo'yardilar. Bir zumda Normamat tog'a va qishlog'imiz zootexnigi Pardavoy aka yetib kelishdi. Normamat tog'a Bibiqjonning ahvolini ko'rib, boshlarini og'ir silkitib qo'ydi.

– Tuzalib ketishi mumkin, – dedi Pardavoy aka Bibiqjonning boshini silaganicha dadamga qarab. – Hozir malham qo'yib, bog'lab qo'yaman... Ammo xo'rozimiz zo'r ekan, shunday yovvoyi maxluqning ta'zirini beribdi. Bu, aslida, mushukmas, silovsin ekan... – u hamon to'r ichida jonsarak bo'lib aylanib yotgan maxluqqa ishora qildi.

Bu gapdan keyin Ra'no buvim asta ko'z yoshlarini artdilar-da, yonimga keldilar.

– Bolam, – dedilar biroq g'amgin ahvolda, – sen tushkunlikka tushma. Umid qil, barchasi Oллоhdan. Ammo Bibiqjon haqiqiy xo'rozligini isbotladi. Oilasini, qishlog'ini, tug'ilib o'sgan Vatanning sha'nini mardlarcha himoya qildi.

Bundaylardan o'lim ham qo'rqadi. U o'lmaydi.

Bu gaplardan keyin Bibiqjonning so'lg'in yuzi birdaniga yorishib ketdi. Nazarimda, u yana

**Bahrom AKBAROV,**  
**bolalar yozuvchisi**

## BIBIQJONNING JASORATI

(Sarguzasht qissa)

ham chiroyli bo'lib qolgandi. Zo'rg'a nafas olayotgan Bibiqjon ohista ko'zlarini ochdi-da, buvimga qaradi. Buvim yig'idan o'zlarini zo'rg'a tutib turardilar. Bibiqjon atrofdagilarga bir-bir qarab chiqdi-da, yana ko'zlarini yumdi...

Ertasi kuni ertalabdan hovlimiz bolalarga to'lib ketdi. Chunki Bibiqjonning jasorati bir zumda butun qishloqqa tarqalgan edi.

– Sening xo'rozimiz haqiqiy xo'roz ekan, – dedi Bahodir ko'z yoshlarini arta turib. – Otasining ham, yaxshi ko'rgan tovug'ining ham qasosini oldi. Qoyilman. Kel, otalarimizga o'xshab bir umrga do'st bo'lib qolamiz.

– Endi sira urishmaymiz-a? – dedi Matrayim ko'zlarini chaqchaytirib.

– Urishmaymiz va xo'rozlarni ham urishtirmaymiz.

Bu gapdan keyin hovlimizdagi bolalar baravariga qo'l tashladik.



\*\*\*

Oradan bir necha oy o'tib, erta tongdan hovlimizda xo'rozlarning yangroq ovozi birin-ketin eshitila boshladi. Nazarimda, bu ovozlari qo'shiqqa o'xshab, qo'shiq bo'lganidayam ozodlik, erkinlik va tinchlik qo'shig'i edi, go'yo. Qishlog'imizda osuda, tinch, jo'shqin hayot davom etardi...

(Tamom)



# VILLARNING ENG QAYNOG'I BO'LSIN, BAXTIMIZNING QAYMOG'I BO'LSIN!

28-dekabr 2020-yil

**Poyoniga yetayotgan yilimiz muchal hisobi bo'yicha sichqon yili edi. Endi bu muchal bilan roppa-rosa 12 yilga xayrlashamiz. Kirib kelayotgan Yangi yilimiz esa sigir yili hisoblanadi. Keling, sigir muchalida tug'ilgan insonlarning fe'l-atvoriga birgalikda nazar tashlaymiz:**

Sigir muchalida tug'ilganlar mehnatkash, oilaparvar va vatanparvar bo'ladi. Yolg'izlikni, barqarorlikni ma'qul ko'radilar, hayotiy va doimiy o'zgarishlarni xush ko'rmaydilar. Yaqinlari, do'stlariga hamda oila a'zolariga baxt-saodat, omad keltiruvchi, mehribon, mehnatkash insondirlar. Ushbu muchal yilida tug'ilgan sinfdoshlar, tengqurlar uzoq yillar davomida o'zaro do'stlik rish-talarini mahkam bog'lagan holda tez-tez diyorlashib turadilar. Ular tabiatan juda katta ichki quvvatga ega, jismoniy jihatdan baquvvat, shu bilan birga, qaysar va o'jar bo'ladi. Shuning uchun ham ular o'z

maqsadlari sari dadil va shaxdam qadam tashlaydilar. Barcha qiyinchiliklarni o'zlariga bo'lgan ishonch, bilim va sabr-toqat bilan bartaraf etadilar. Sigir muchalida tug'ilgan insonlar tezda bir qarorga kela olishmas ekan. Ularning barcha xatti-harakatlari moddiylik bilan bog'liqdir. Shu o'rinda, sigir muchalida tavallud topgan mashhurlar haqida ham o'xtalib o'tishni joiz

deb bildik. Nafaqat O'zbekistonda, balki butun dunyoda «Osiyo yo'lbarisi» deb nom qozongan, boks afsonasi Rufat Risqiyev, yana bir mashhur bokschimiz Muhammadqodir Abdullayev, xushovoz xonandalar Nasiba Abdullayeva, Tohir Sodiqov, ayniqsa, siz sevib

ertaklarini mutolaa qiladigan yozuvchi Xans Kristian Andersen, multfilmlar qiroli deya nom qozongan Uolt Disney hamda dunyoga mashhur komik aktyor Charli Chaplin ham mazkur muchalda tavallud topishgan ekan. Ana shunaqa!

Internet manbalari asosida  
**ZUHRA tayyorladi**



Pazanda qizga!

Bayram dasturxoniga ajoyib salat tayyorlab,

yaqinlaringizning ko'nglini olmoqchimisiz? Qizlarimiz «Har yili bir xil salat tayyorlaymizmi?» deb o'ylayotgan bo'lishsa, ajabmas. Bugun sizlarga tavsiya qiladigan salatimiz dasturxonigiz ko'rkiga ko'rk qo'shadi, degan umiddamiz. Sochlaringizni yig'ishtirib, qo'llaringizni yuvib, fartuk taqib oldingizmi? Unda, ishimizni boshladik:

## BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR! «YANGI YIL» TOPQIRLIK MASHQLARI KROSSVORD

**Zanjir holida:** 1. Muchal hisobi bo'yicha boshlanayotgan yil. 2. Yangi yil dasturxoniga maxsus pishirilgan varaqalar tortilib, mehmonlar ularni tanovul qilib, o'z «baxt» va «istiqbol»larini sinab ko'rish odati hukm surgan Yevropadagi davlat. 4. Tavalludi kuniga sakson yil to'ladigan O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri. 5. Maqoldan: «Kutsang o'tmaydi, shoshilsang yetmaydi». 6. Vyetnamda yangi yilga berilgan nom. 7. Boshlanayotgan yilda yozgi olimpiada o'yinlari o'tkaziladigan poytaxt shahar. 8. Tavalludi kuniga 100 yil to'ladigan O'zbekiston xalq shoiri.

9. Muborakbod, maqtoq.  
**Eniga:** 3. Yuz yillik davr. 10. Yer sayyorasi shakli. 20. Fasl.  
**Bo'yiga:** 11. Vaqt o'lchovi birligi. 12. Yangi yilni birinchi bo'lib kutib olinadigan mamlakat. 15. Kunning musaffo payti. 16. Tantanali, shodiyona kun. 17. Bahor oylaridan biri. 18. Sharq xalqlarining Yangi yil ayyomi. 19. Ko'tarinki kayfiyat, xursandchilik.  
**Diagonal bo'yicha o'ngga:** 13. Erkin Vohidov she'ridan: «... yuz ming bo'lsa oz».  
**Diagonal bo'yicha chapga:** 14. Bejamli shirinlik.

**KRIPTOGRAMMA.** Kalit so'zlar:  
1. Qish aravasi - 12, 1, 6, 1.  
2. Yilning eng qisqa tuniga berilgan nom - 7, 1, 2, 15, 5.  
3. Soat bonggi - 14, 1, 6, 8.  
4. Xushbo'y sitrus meva - 13, 1, 6, 15, 1, 11, 3, 6.  
5. Ho'l mevdadan tayyorlanadigan ichimlik - 9, 1, 11, 4, 10.  
6. Xalq termalari bilan ijro etiladigan qo'shiq - 16, 2, 1, 6.  
7. Baxt, tole - 17, 1, 5, 15, 1, 10.  
**Endi kalit so'zlari javoblari orqali shakl atrofidagi raqamlarda yashiringan tabrik so'zlarini bilib oling.**


## QIZIL BALIQDAN YAXNA TAOM

Qizil baliq har bir millatning eng sevimli yaxna taomi hisoblanadi. Ammo qizil baliqni shunchaki dasturxoniga qo'yib qo'ya olmay-siz, albatta. Unga bezak berib, to'ldirish kerak. Dasturxonigizni ana shunday ajoyib yaxna taom bilan bezatmoqchimisiz? Unda, maslahatimizga quloq tuting: Bizga: Oq non (baton) – 1 dona, qizil baliq – 200 gramm, ukrop – 3-4 ta shoxchalar, suzma yoki mayin tvorog, bir dona bodring kerak bo'ladi.



**Ish avvalida:** baton non bo'laklarining o'rtasini dumaloq shaklli stakan yordamida kesib chiqamiz. Ukropni maydaroq to'g'rab, suzma bilan aralashiramiz. Non bo'laklariga suzma yoki tvorog surib, ustiga yupqa qilib kesilgan bodringlarni, so'ngra baliqlarni gul shakliga keltirib qo'yamiz. Tayyor yaxna taomni lipopchalarga solib, dasturxoniga qo'yamiz. Yoqimli ishtaha!

**NARGIZA tayyorladi**



Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV



28-dekabr 2020-yil

## QORQIZNING ORZUSI

Qorqiz televizorda «Yosh kitobxon» tanlovini diqqat bilan tomosha qildi. Ko'rsatuvda bilimdon o'quvchilar shoir va yozuvchilar hayoti, ijodi hamda jahon adabiyotidan o'qiganlarini ustozlar qarshisida imtihondan o'tkazardilar.

Tanlov nihoyasiga yetib, taqdirlash fursati keldi. 1-o'ringa – «Spark» avtomobili, 2-o'ringa – 200 ta kitob, 3-o'rin sohibiga kompyuter jamlanmasi va boshqa bir qancha sovg'alar topshirildi. Qorqiz yosh kitobxonlarga havas nigohi bilan boqdi. Uning o'zida ham tanlovda qatnashish va g'olib bo'lish istagi paydo bo'ldi va bilimni hech kim tortib olmaydi, deya oldiga maqsad qo'ydi.

Shu payt Qorboboning «Qizalog'im, turaqol!» degan ovozi eshitildi. Qorqiz bexosdan uy'g'onib ketdi.

– Qizalog'im, har Yangi yilda bolalarga sovg'a berar ekanman-u, biroq senga... – dedi-da, chiroyli qog'ozga o'ralgan narsani uning qo'liga tutdi.

Qorqiz sovg'ani mehr bilan ochdi va eng katta boylik – kitobga ega bo'lganini ko'rib hayratlandi, so'ng kitobni mehr bilan bag'riga bosdi. Shu kuni Qorqizning orzusi ushlangandi.

**Muhtaram HASANOVA,**  
Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumanidagi 68-umumta'lim maktabining 11-sinf o'quvchisi



## TONG YULDUZI

Ustozimiz Dilorom Zufarova ma'naviyat soatida ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalgan noxush voqea, ya'ni bir bolaning sinf xonasida o'qituvchisining ko'z o'ngida pirotexnika vositasini qizlar tomonga otib yuborgani aks etgan video haqida gapirib berdilar.



## PAQILDOQLAR YO'Q BO'LSIN!

Ustozning aytishicha, bu bola Farg'ona viloyati, Bag'dod tumanidagi maktablardan birining o'quvchisi ekan. Voqea yuzasidan shu kunning o'zida yo'q keng jamoatchilik va huquq tartibot organlari xodimlari



hamkorligida o'rganish ishlari olib borilibdi. Mazkur holatda O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy jinoiyatlar kodeksining 47-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan, deb hisoblanib, o'quvchining ota-onasiga bazaviy hisoblashning ikki baravari miqdorida, ya'ni 446 ming so'm jarima to'lash belgilanibdi. Shuningdek, profilaktik ishlar olib borish maqsadida huquqbuzarlik sodir etgan o'quvchi bir yil muddatga tuman IIBda ro'yxatga olinibdi.

Ustoz o'zlari guvohi bo'lgan yana bir ko'ngil-siz voqeani aytib berdilar. Yaqinda Sergeli tumanida yashaydigan dugonalarnikiga mehmonga borayot-salar, uy atrofida bir guruh biz tengi o'quvchilar paqildoqni paqillatib, o'zlari har tarafga qochib ketishibdi. Dugonalarnikidan chiqib ketayotganlarida ham bu hol yana takrorlanibdi. Ustozning ko'ngillari xira bo'libdi. Axir har kuni oynayi jahon orqali o'yin-

qarq bolalarning paqildoq paqillatib, ko'pchilikning xalovatini buzishayotgani, ayrim hollarda katta yoshli insonlar salomatligiga,

hattoki o'z salomatliklariga ham ziyon yetkazishayotgani haqida gapirilyapti, lavhalar namoyish etilyapti. Nahotki, o'zgalarning tinchligi, salomatligi evaziga boylik orttirish maqsadidagi noinsof kimsalardan o'zlariga tegishli xulosa chiqarib olishmasa?! Shunday savollar qarshovida qolgan ustozimiz bu voqealarni bizga ibrat ma'nosida so'zlab berdilar. Biz ham o'zimizga tegishli xulosa chiqarib oldik. Keling, qadri tengdoshlar, bunday nojo'ya ishlarga qo'l urmaylik. Biz uloqtirgan paqildoqning bexosdan yangragan quloqni qomatga keltiruvchi tovushi yaqinlarimizni, sinfdoshlarimizni, ota-onamizni, mahalladoshlarimizni cho'chitmasin. Uning o'rni-ga bo'sh vaqtimizni foydali ishlarga sarflaylik. Biz bir ovozdand, «Paqildoqlar yo'q bo'lsin!», deymiz.

**Poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 249-umumta'lim maktabining 6-«A», 6-«V», 8-«A» sinf o'quvchilari**

## BAYRAM TILAGI

Ko'z ochib yumguncha keldi qish fasli,  
Jilosi yaltirar kumush qorlarning.  
Oqlikdan, poklikdan yayraydi ko'nglim,  
Aritib yurakdagi g'uborlarni.

Tabiat chiroyi bunchalar go'zal,  
Archalar kerilmish bo'lib sarvqomat,  
Tilagim shu daraxtdek bo'y cho'zsin shodlik,  
Yangi yil barchaga keltirsin omad!

**Diyora EMINOVA,**  
Qashqadaryo viloyati, Kasbi tumanidagi 46-umumta'lim maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi



## YANGI YIL

Yangi kun, yangi his,  
O'zgacha tuyg'u.  
Barchasi jamlashgan,  
Senda, Yangi yil.

Bolalar quvonchi,  
Sevinchi senda.  
Yangi baxt, yangi kun,  
Senda, Yangi yil.



Qishning fusunkorli  
Bezagidursan.  
Oppoq, mayin qorlar  
Yog'dusidursan.  
Yurtga quvonch, shodlik  
Olib kelguvchi,  
Sen baxt nuridursan,  
Oydin Yangi yil!

**Shahzoda QODIROVA,**  
Navoiy shahar,  
16-AFCHO'IMning  
7-«Z» sinf o'quvchisi

## ANDIJONIM

Ajdodlarim ziyosi,  
Yo'q tengi-yu qiyosi,  
Kashfiyotlar dunyosi,  
Bu yurt go'zal Andijon.

Ko'chalarin ko'ring siz,  
Uyg'otar ajib bir his,  
Xalqi esa ochiq yuz,  
Bu yurt go'zal Andijon.

Bisyor mehr-u muhabbat,  
Har go'shasi bir jannat,  
Uni sevaman albat,  
Bu yurt go'zal Andijon.

**Ruxshona BOQIYEVA,**  
Andijon viloyati, Oltinko'l  
tumanidagi 28-umumta'lim  
maktabining 9-sinf o'quvchisi



**BIZNING TELEGRAM RAQAMIMIZ: (94) 645-90-70**

**Tong yulduzi**

**Muassis:**

O'zbekiston Respublikasi  
Xalq ta'limi vazirligi

**Bosh muharrir**  
Feruz ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0208-raqam bilan 2019-yil 10-iyunda ro'yxatdan o'tgan.

**TAHRIR HAY'ATI:**  
Dilshod KENJAYEV,  
Alisher SA'DULLAYEV,  
Murtazo SULTONOV,  
Feruz JALILOVA,  
Ashurali JO'RAYEV,  
Feruz MATYOQUBOV  
(mas'ul kotib)

**Navbatchi muharrir**  
Axtamqul  
KARIMOV  
**Rassom**  
Feruzbek  
KAMOL o'g'li  
**Sahifalovchi-dizayner**  
Shaxobiddin  
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga bosmaxona mas'ul.  
Manzillim va bosmaxona manzili:  
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi,  
30-uy. Indeks: 100011.  
Obuna indeksi: 198.  
[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz)  
e-mail: [tongyulduzi1929@umail.uz](mailto:tongyulduzi1929@umail.uz)  
telegram: [t.me/tongyulduz](https://t.me/tongyulduz)  
Adadi - 1649  
Buyurtma - V 4486.

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
Bahosi kelishilgan narxda.  
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.  
Topshirish vaqti - 18:00  
Topshirildi - 18:00  
Tel./faks: (99871) 244-63-08